


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**ISSUES OF SELECTION OF WRITING IN THE DEVELOPMENT OF TURKISH OFFICIAL STYLE*****Kudratulla Omonov****vice-rector, doctor of philology, professor**TSUOS**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: script, Turkic-Uighur script, blue Turkic script, Scythian script, Central Asia, Horde.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: The article talks about the writing culture, the cases in its history of the Timurid era, when Turkic-Uighur and Arabic scripts were used side by side (parallel). In particular, the position of the Turkic-Uyghur script is no less than the Arabic script, and a large number of state documents from those times are written in two different scripts: the labels of Temur Qutlugh, Abu Said, Fatih Mehmed are written in the Turkic-Uyghur script. An analysis of the fact that the series was transcribed in Arabic script, and the geography and chronology of the official texts in the blue Turkish script that were found before it, is presented. These documents are significant because they were written in different regions of the Central Asian region from the time before AD to the 9th century AD, which means that the blue Turkish alphabet was the state script of the Turkish khanates at that time. it is revealed to bring.

TURKIY RASMIY USLUB TARAQQIYOTIDA YOZUVNING TANLANISHI MASALALARI***Qudratulla Omonov****prorektor, filologiya fanlari doktori, professor**TDSHU**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: yozuv, turkiy-uyg'ur xati, ko'k turk xati, skif yozuvi, Markaziy Osiyo, Oltin O'rda.

Annotatsiya: Maqolada yozuv madaniyati, uning tarixida temuriylar davri turkiy-uyg'ur va arab yozuvlarining yonma-yan (parallel) qo'llanilgan holatlar haqida so'z

yuritiladi. Xususan, turkiy-uygʻur xatining mavqei arab yozuvidan oz emasligi, oʻsha chogʻlardan qolgan davlat hujjatlarining salmoqli boʻlagi ikki xil yozuvda: Temur Qutlugʻ, Abu Said, Fotih Mehmed yorliqlari turkiy-uygʻur xatida bitilib qatorma-qator arab yozuvida transkripsiyalab chiqilganligi, unga qadar esa topilgan koʻk turk xatidagi rasmiy matnlar jugʻrofiyasi va xronologiyasi mavjud boʻlganligi tahlili keltirilgan. Mazkur hujjatlar Markaziy Osiyo mintaqasining turli hududlarida miloddan burungi kezlardan boshlab, eramizning IX yuzyilligiga qadar bitilgani bilan ahamiyatli ekanligi, bu esa oʻsha chogʻlarda koʻk turk alifbosi turkiy xoqonliqlarning davlat yozuvi maqomida boʻlgani toʻgʻrisidagi toʻxtamga olib kelishi ochiqlangan.

ВОПРОСЫ ОТБОРА ПИСЬМЕННОСТИ ПРИ РАЗВИТИИ ТУРЕЦКОГО ОФИЦИАЛЬНОГО СТИЛЯ

Кудратулла Омонов

Проректор, доктор филологических наук, профессор

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: письменность, тюрко-уйгурская письменность, сине-тюркская письменность, скифская письменность, Средняя Азия, Орда.

Аннотация: В статье говорится о культуре письменности, случаях в ее истории эпохи Тимуридов, когда тюрко-уйгурская и арабская письменности параллельно. В частности, положение тюрко-уйгурской письменности не уступает арабской письменности, и большое количество государственных документов тех времен написаны двумя разными письменностями: надписи Темура Кутлуга, Абу Саида, Фатиха Мехмеда написаны на тюрко-уйгурской письменности. Представлен анализ того, что хронология был переписан арабской графикой, а также география и хронология официальных текстов графики «кок турк», обнаруженных до нее. Эти документы примечательны тем, что они были написаны в разных регионах Среднеазиатского региона с до н. э. до IX века н. э., а это означает, что алфавит «кок турк» был государственным письмом турецких ханств в то время.

KIRISH

Ilk va oʻrta asrlardan qolgan rasmiy matnlar turli tizimga tegishli yozuvlarda bitilgan. Turkiy rasmiy uslub taraqqiyotining ikki (eng qadimgi va turk xoqonliqlari davri [Ishoqov, Sodiqov, Omonov 2009, 93–96]) bosqichida bitilgan hujjatlarning salmoqli boʻlagi, asosan, koʻk turk yozuvida boʻlsa, keyingi yuksalish bosqichlarida bitilgan hujjatlar turkiy-uygʻur, moniy, doʻrbarjin, arab alifbolaridadir. Masalan, birinchi va ikkinchi turk xoqonliqlari davrida davlatning bosh yozuvi koʻk turk alifbosi boʻlganligini saltanat xoqonlarining buyrugʻi bilan oʻrnatilgan bitigtoshlarning matni tasdiqlab turibdi. Undan keyingi davrlarda turkiy-uygʻur va arab alifbolari davlat yozuvi maqomiga koʻtarilganligini oʻsha chogʻlardan qolgan davlat hujjatlari, tangalar, muhrlardagi yozuvlardan bilsa boʻladi.

Markaziy Osiyo hududidan topilgan rasmiy matnlar qadimgi saltanatlarda davlat boshqaruviga tegishli hujjatlar koʻk turk yozuvida olib borilganini koʻrsatmoqda. Chunonchi, qadimgi xitoy solnomalaridagi qaydlar eramizdan burungi II yuzyillarda qadimgi turkiy davlatlardan xitoylarga yoʻllangan rasmiy yozishmalar ham turkiy xalqlarning oʻz yozuvlarida ekanidan darak beradi.

ASOSIY QISM

Tarixiy manbalarda ham turk xoqonlaridan qoʻshni ellarga yoʻllangan yozishmalar koʻk turk yozuvida boʻlganini tasdiqlovchi dalillar yetarli. Vizantiyalik tarixchi va diplomat Menandr 568 yili Istami xoqondan Konstantinopolga qirol Yustin II qoshiga kelgan elchilarning qabuli toʻgʻrisida maʼlumot bera turib, ular keltirgan maktub «skif yozuvi» bilan bitilganligini qayd etgan [http://ru.wikipedia.org/wiki/Menandr_Protektor]. Vizantiya tarixnavisligida turkiy xalqlarga nisbatan «skif» etnonimi qoʻllanishini hisobga olsak, bu oʻrinda «skif yozuvi» atamasi ostida, aynan turkiy xalqlarning qadimgi yozuvi – koʻk turk alifbosi koʻzda tutilayotgani ayon boʻladi.

Umuman, ota-bobolarimizning koʻk turk xatida bitilgan yozma merosiga tayanib, davlatchilik tarixida amal qilgan rasmiy til va yozuvning huquqiy maqomi toʻgʻrisida yangi ilmiy xulosalarni ilgari surish mumkin.

Kunimizga qadar topilgan koʻk turk xatidagi rasmiy matnlar jugʻrofiyasi va xronologiyasiga eʼtiborni qaratsak. Ular Markaziy Osiyo mintaqasining turli hududlarida meloddan burungi kezlardan boshlab, eramizning IX yuzyilligiga qadar bitilgani bilan ahamiyatlidir. Bu esa oʻsha chogʻlarda koʻk turk alifbosi turkiy xoqonliqlarning davlat yozuvi maqomida boʻlgani toʻgʻrisidagi toʻxtamga olib keladi.

Qadimdan qolgan koʻk turk xatidagi rasmiy matnlar nihoyatda savodli bitilgan. Mazkur rasmiy matnlar imlo meʼyorlariga oʻz davri adabiy tili imlosining mezoni sifatida qarash mumkin. Hujjatlarda harflar tizimi va imloda qatʼiy tartib mavjud. Eʼtiborlisi, oʻsha zamonlarda koʻk turk xatida bitilgan davrdosh yodgorliklarda unilarni ifodalovchi grafik belgilar soʻzda doimo aks

etavermagan. Biz o'rganayotgan ko'k turk yozuvida bitilgan hujjatlar matnida so'zning ko'p o'rinlarida unilarni bildiruvchi belgilar to'liq yozilgan. Chunonchi, VIII asrning boshlarida bitilgani taxmin qilinayotgan, sharob olingani evaziga berilgan tilxatda unililar yozuvda to'liq aks etgan [Thomsen 1912].

IX asrdan boshlab, turkiy saltanatlarda yozuv vaziyati o'zgarib boshladi. Bu kezlardan turkiy-uyg'ur yozuvi turkiy xalqlarning asosiy yozuvlaridan biriga aylandi. Mazkur yozuv turkiylar orasida keng qo'llanilgan. «Qashqardan Chingacha – hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan», deb xabar beradi Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'atit turk» asarida [DLT I,50]. Otabobolarimiz islom dinini qabul qilganlaridan keyin esa, u arab yozuvi bilan yonma-yon qo'llangan. Davlat boshqaruv tizimida ikkala yozuvning ham huquqiy maqomi bir darajada edi. Chunonchi, Qoraxoniylar davlatida hujjat ishi bilan shug'ullanuvchi matn bituvchilar *bitig'chi*, faqat turkiy-uyg'ur xatidagina hujjat tuzuvchilar esa *ilim'ga* deb atalgan [DLT I,161].

XIII yuzyillikning birinchi yarmidan turkiy-uyg'ur xatining yuksalishi Chingizxon va uning avlodlari bilan bog'liq bo'ldi. Chingizxonlar o'z davlatlarini qurib, qo'shni ellarni bosib olgandan so'ng, ular ilgida bo'lgan uluslarda davlat-idora, mahkama ishlari turkiy-uyg'ur xatida olib borilgan. «Ular hatto o'zlarining mo'g'ul tillarini unutib, turkcha tilni saroy tili hamda jonli so'zlashuv tili sifatida iste'mol qildilar» [Vamberi 1990,30].



XIV asrga kelib Temur davlatida va Oltin O'rdada turkiy-uyg'ur yozuvi davlat muhofazasida bo'ldi [Vamberi 1990,56]. Bu kezlarda davlat-idora ishlari, rasmiy hujjatlar, diplomatik yozishmalar, ish yuritish qog'ozlari ana shu xatda olib borildi.

Turkiy-uyg'ur yozuvi bu davrda salmoqli o'rin egallaganini arab tarixchisi Ibn Arabshoh «Temur tarixida taqdir ajoyibotlari» asarida shunday yozadi: «Ular (chig'atoyliklar) imzoyu farmonlari, buyrug'u maktublar, hisob-kitob daftarlariyu tamg'ali (yorliq)lar, solnomayu nazmlar, qissayu xabarlar, ahdnoma va muqaddas kitoblardan parchalar hamda devon ishlari bilan bog'liq jami xatlariyu (hatto) Chingizxon tavrosini xam shu xat bilan bitadilar. Bu xatda mohir kishi ularda ochidan o'lmaydi, chunki bu (xatni bilish) ular nazdida rizq kaliti hisoblanadi» [Ibn Arabshoh 1992, 96].


Temurdan so'ng uning vorislari ham turkiy-uyg'ur yozuviga otalaridan qolgan meros sifatida hurmat bilan qarashdi. Ularning devonlarida turkiy-uyg'ur xatida ko'chiruvchi kotiblar *baxshi* atamasi bilan yuritilgan.



Yozuv madaniyati tarixida temuriylar davri turkiy-uyg'ur va arab yozuvlarining yonma-yon (parallel) qo'llanilganligi bilan ahamiyatlidir. Muhimi, o'sha kezlarda turkiy-uyg'ur xatining mavqei arab yozuvidan oz emasdi. O'sha chog'lardan qolgan davlat hujjatlarining salmoqli bo'lagi ikki xil yozuvda: Temur Qutlug', Abu Said, Fotih Mehmed yorliqlari turkiy-uyg'ur xatida bitilib qatorma-qator arab yozuvida transkripsiyalab chiqilgan.


IX–XV yuzyilliklarda turkiy-uyg‘ur yozuvi nihoyatda katta mintaqada tarqalgan va davlatning bosh yozuvi edi. Bu kezlarda turkiy-uyg‘ur yozuvining bir-biridan farq qiluvchi xat ko‘rinishlari yuzaga keldi. Turkiy-uyg‘ur xati turlarini olimlar uch guruhga ajratishgan [Sodiqov 1992, 66–71]. Turkiy-uyg‘ur yozuvli rasmiy matnlarning xat ko‘rinishlari ham bir-biridan farq qiladi.




Chunonchi, XIII–XIV yuzyilliklarga tegishli kishilar o‘rtasidagi oldi-berdi, savdo-sotiq ishlarini rasmiylashtirish, xo‘jalikni yuritish bilan bog‘liq ko‘plab ish qog‘ozlari hamda To‘xtamish yorlig‘ining yozuv turi qadimgi turkiy-uyg‘ur xati shaklini yodga tushiradi. Matnda harflarning tishchalari nisbatan kichik; so‘z oxirida kelgan belgilar yozuv yo‘nalishi bo‘ylab () va tepaga cho‘zilgan (). Ushbu hujjatlarning yozuv shakli hozirgi kungacha saqlangan manbalardan «O‘g‘uznoma» ning xat turiga yaqin.

Temur Qutlug‘, Sulton Abusaid, Fotih Mehmedning turkiy-uyg‘ur yozuvli hujjatlarining xat ko‘rinishi, mutaxassislar fikricha, keyingi – arab yozuviga o‘tish bosqichida yuzaga kelgan.

Turkiy-uyg‘ur xatida yozilib, so‘zma-so‘z arab yozuvida transkripsiyasi berilgan matnlar bu xat shakliga misol bo‘ladi. Ushbu yodgorliklarning o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan. O‘rta asrlar kitobatchilik an‘anasiga ko‘ra, yozma obidalarda turkiy-uyg‘ur xatidagi matn qalin qamish bilan qorada, ostidagi arab yozuvi bilan bitilgan matn esa ingichkaroq qilib qizil siyohda bitilar edi [Sodiqov 1990, 9]. Hujjat matnidagi harflarning tishchalari keng; boshqa xat turlaridan farqli o‘laroq, so‘z so‘ngidagi harflarning tepaga tortilgan va tushiriladigan elementi cho‘ziqroq () V.Radlov mazkur yorliq xat shaklini «hujjatlar yozuvi» (Dokumenten schrift) deb ataydi. Biroq, ushbu xat turida yolg‘iz hujjatlar emas, shuningdek, XIV–XV asrlarda ko‘plab badiiy asarlar ham ko‘chirilgan. Shu bois, olimning turkiy-uyg‘ur yozuvining ushbu shakli haqidagi fikri o‘zini oqlamaydi [Sodiqov 1992, 65–67].

XIII–XIV asrlarda kishilar o‘rtasidagi oldi-berdi munosabatlarni rasmiylashtirish maqsadida bitilgan hujjatlarning asosiy qismi hamda temuriylardan Shohruh va Umarshayx tomonidan berilgan hujjatlarda qo‘llangan yozuvdagi harflarning tishchalari o‘rtacha; belgilarning, asosan, pastga tortilgan elementlarigina cho‘zilgan (). Yozuvda [s] va [q] undoshlarini ifodalash uchun o‘xshash belgi () qo‘llangan. Fransuz sharqshunosi J.Deni fikricha, ushbu hujjatlarning xat turi «Me‘rojnom» va «Tazkiratul-avliyo» singari asarlarning turkiy-uyg‘ur yozuvli nusxalari xat shakliga nihoyatda o‘xshaydi (identigue) [Deny 1957, 254].

Shuni qayd etish kerakki, biz tadqiq etayotgan turkiy-uyg‘ur yozuvli turkiy hujjatlarda ba‘zan [h] undoshi [a] ni ifodalovchi belgi () ko‘magida beriladi. Bu grafik o‘zgachalik hujjatlarni chop ettirgan olimlarni chalg‘itgan. Chunonchi, V. Radlov To‘xtamish





yorlig'idagi () *Hasan* otini *Äsän*, P. Melioranskiy Umarshayx nishonidagi () *har* olmoshini *är* tarzda, J. Deni Shohruh hujjatidagi () *Bahadur* unvonini *Batur* ko'rinishida transkripsiyaga o'g'irgan.



Biroq, bu o'rinlarda mazkur  belgi [a] ning emas, [h] undoshining ifodasidir.



Hujjatlarda muayyan punktuatsion belgilar ham rasmiy uslubdagi grafik me'yorni belgilashga xizmat qilgan.


Ayonki, grafik belgilar fonetik xususiyatlarni yozuvda aniq aks ettirishga xizmat qilgan, rasmiy yozmalar qonun kuchiga ega matn sifatida to'g'ri, xatosiz o'qilishi kerak. Shuning bilan birga diakritik belgilar matnlarni turli talqinlardan xalos etadi va uslub aniqligini ta'minlaydi.

Turkiy-uyg'ur xatida harf ustiga qo'yilgan nuqta va qo'sh nuqta diakritik belgi vazifasini bajargan. Ba'zan o'zlashgan so'zlardagi tovushlarni berishda arabcha harflardan ham diakritik belgi sifatida foydalanilgan. Quyida ayrim hujjatlarda qo'llanilgan ana shunday ishoratlar bilan tanishib chiqamiz:

1) Qo'sh nuqta ko'p o'rnida [ğ], [q] va [x] ni ifodalashga xizmat qilgan () *yarliq* «yorliq» (TQ,12), () *xanaqağa* «xonaqoga» [ShN,5], () *tarxan* «tarxon» (TQ,18); ayrim o'rinlarda [š] ni ifodalashda ham qo'sh nuqtadan foydalanilgan: () *qušči* «qushchi» [TQ,10].

2) Matnlarda bir nuqta [n] ni ifodalaydi: () *kentlarini*, «kentlarining» [TQ,23], () *qonur* «joylashib» [ShN,11].

3) O'zlashgan so'zlar tarkibidagi «ayn» (ع) ni ifodalaganda arab alifbosidagi (ع) dan foydalanilgan: () *muta'addid* «ko'p qayta» [TQ,24], () *varizat* «qo'shimcha soliq» [TQ,45].

4) [h] (ه) ifodalanganda arab xatidagi (ه) dan foydalanilgan: () *mashhur* «mashhur» [TQ,25].

5) [H] (ح) ni ifodalaganda arab alifbosidagi ح dan foydalanilgan: (



) mahrus «saqlangan» [TQ, 46].

6) Ayrim rasmiy matnlarda matndagi gapning tugagani to'rt nuqta yordamida berilgan:




. Berlin fondida saqlanayotgan U 5239 raqamli vasiqada *toğri qilip berdim* (to'lovini to'liq ado etdim) jumlasidan keyin, to'rt no'qta qo'yilgan:




[U 5239].

XI–XIII asrlarning rasmiy matnlarida ko'p qaytariluvchi va qolipli birikma hosil qilgan ayrim so'z va birliklar qisqartma ko'rinishida ham bitilgan. Chunonchi, *sānap* – sanab so'zi *snp*

ko'rinishida, *čam čarim* formulyasi () *čm črim*

shaklida *mān* olmoshi () *mn* tarzida *yāmā* – «yana» yordamchi so'zi *ymā*, yigirma soni

() *yrmī* [ShN,12], hujjatning turini anglatuvchi *nišan* atamasi (



) *nšn* [UM,12] ko'rinishida yozilgan. Bu o'sha davr ish-yuritish amaliyotida ayni imlo normasi qabul qilinganidan bo'lishi mumkin.

Turkiy-uyg'ur yozuvi tezxat uchun moslashtirilgan yozuv hisoblanadi. Chunki u kam sonli grafik belgilardan tashkil topgan. Turkiy-uyg'ur xatida bir qalam tortib, uni uzmay so'zni oxirigacha yozish mumkin. Harflar qo'shib yozilganda so'zlar zanjirdek tiziladi [Kara 1972, 84]. Aslini olganda mahkama va devon ishlari uchun ana shunday yozuv kerak bo'ladi. Shuning uchun ham XI–XV asrlarga oid ko'plab rasmiy bitiglar, ish yuritish qog'ozlari, huquqiy matnlar va kishilarga tegishli vasiqalar turkiy-uyg'ur yozuvida bitilgan.

Shu o'rinda yana bir mulohazani bildirsak. O'sha kezdayoq kishilar o'rtasida yolg'iz o'qish va yozishgina emas, rasmiy matnlar tuzish layoqati, ya'ni huquqiy savodxonlik ham yo'lga qo'yilgan edi. XIII–XIV asrlarda kishilar o'rtasidagi notarial munosabatlarni rasmiylashtirish maqsadida bitilgan turkiy-uyg'ur yozuvli hujjatlarda ularning tuzuvchisi (kotibi) ham qayd etilgan. Bu yumushni savodli, huquqiy bilimdon kishilar bajargan. Masalan, Berlin Fanlar akademiyasi fondidagi U 5259 ko'rsatkichli vasiqa Qavsidu degan kimsaning kunjut donini qarzga olgani to'g'risida. Tilxat so'ngida Qavsidu uni o'z qo'li bilan bitgani ta'kidlangan: *Mān Qavsīdu özüm bitidim* (Men Qavsidu o'zim yozdim) [U 5259]. Yoki yana shu fondagi U 5271 raqamli hujjat yerning ijarasi bilan bog'liq. Unda Temur Bug'a ismli kishi Qiyimtu degan kishidan yerini ijaraga olgani to'g'risida so'z boradi. Tugallanmada Qiyimtu rasmiy matn bilan Temur Bug'ani tanishtirib, so'ng bitgani qayd etiladi. Mana o'sha bo'lak: *Qiyimtu Tämür Buğağa ayitip bitidim* (Qiyimtu Temur Bug'aga aytib (eshittirib) yozdim) [U 5271].

Shu bois, ayrim tadqiqotchilarning turkiy-uyg'ur xati tor doirada, oddiy kishilar munosabatidan uzoqda, davlatlar o'rtasidagi diplomatik yozishmalarda qo'llangan, degan qarashlari u qadar o'zini oqlamaydi.

Bilamizki, XIII–XIV yuzyillik Yevroosiyo xalqlarining siyosiy, madaniy, ijtimoiy tarixi Chingizxon bosqini bilan bog'liq. Bu kezlarda chingiziylar ulkan hududda o'z saltanatlarini qurgan. Ularning o'z milliy yozuvi bo'lmagani bois, ularning qo'l ostidagi ellarda (saltanat qurilgan dastlabki yillarda) davlat-idora ishlari, rasmiy yozishmalar turkiy-uyg'ur yozuvi va turkiy tilda olib borilgan [VI, 527]. Turkiy-uyg'ur xatining ushbu kezdagi takomili Chingizxon va chingiziy sulolalar bilan bog'liq. Chingiziylar turkiy-uyg'ur yozuviga o'z qondoshlarining xati sifatida hurmat va ehtirom bilan qaradilar [Kara 1972,302].

O'sha kezlarda mo'g'ullar saltanatidagi o'lkalarning etnolingvistik va yozuvning qo'llanishi holati to'g'risida XIII asrda o'tgan, tarixchi Alouddin Otamalik Juvayniy «Tarixi jahongushoy» asarida ham ma'lumot qoldirgan. U o'z kitobida hamma odamlar ilm-fan bilan shug'ullanish o'rniga uyg'ur (turkiy – Q.O.) tili hamda yozuvi bilan mashg'ul bo'lib boryapti, deb qayd etadi.

XULOSA

XIV asrga kelib ayrim turkiy qavmlar joylashgan mintaqalarda rasmiy yozmalar do'rbaljin xatida ham bitilgan. Markaziy Osiyo o'lkalarida do'rbaljin xati bilan turkiy tilda bitilgan yodgorliklar nihoyatda kam salmoqni tashkil etadi, deb kelinar va bu siraga Oltin O'rda hududidan topilgan qayin po'stlog'idagi do'rbaljin yozuvli matn ko'rsatilar edi [Poppe 1941,81]. Biroq, izlanishlar ushbu qarashlar u qadar to'g'ri emasligini ko'rsatmoqda. Chunonchi, o'tgan asrning oxirlarida nemis sharqshunosi P. Sayme Berlin fondlarida saqlanayotgan ayrim do'rbaljin yozuvida bitilgan turkiy hujjatlar uzundisini chop ettirdi [Zieme 1998,63–69].

P. Saymening kuzatuvlariga ko'ra, XIII–XIV asrlardan qolgan do'rbaljin yozuvi bilan turkiy tilda bitilgan buning singari hujjatlarning salmoqli bo'lagi kunimizga qadar o'rganilgan emas [Zieme 1998, 68].

XVI asrdan boshlab to XX asr boshlariga qadar davom etgan turkiy rasmiy uslubning keyingi taraqqiyot bosqichlaridan qolgan rasmiy matnlar arab xatidadir.

Umuman, turkiy rasmiy uslubga tegishli matnlarda yozuvning tanlanishi, hujjat bitilgan davrning til va yozuv vaziyati hamda yozuvning huquqiy maqomi bilan bog'liq bo'lgan ko'rinadi. Shu bilan birga, matnda qo'llangan yozuvning turiga qarab hujjat bitilgan davrning etnolingvistik vaziyati xususida xulosa berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'LYXATI

1. Sodiqov, Q., & Omonov, Q. Туркий хужжатчиликнинг Тарихий илдиэлари. (*No Title*).

2. Кўчимов, А., Омонов, Қ. Ш., Аскарлов, А., Сагдуллаев, А. С., Юсупова, Д. Ю., Гуломов, С. С., ... & Мардонова, Г. А. ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АХБОРОТ АГЕНТЛИГИ–ЎЗА ИЛМ-ФАН БЎЛИМИ (ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ).
3. Omonov, Q. (2020). Turkiy tillar tarixida rasmiy uslubning takomil bosqichlari va davrlashtirish masalalari. *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 2(2).
4. Омонов, К. (2020). Разделение и периодизация истории турецкого официального стиля на этапы развития. *Восточный факел*, 2(2), 69-79.
5. Омонов, К., & Мирсамадова, С. (2021). Последователь Навои в уйгурской литературе Абдурахим Низари и использование художественных приемов в его произведении «зад-ул-нажот». *Восточный факел*, 2(2), 3-8.
6. Омонов, Қ. (2023). “ДЕВОНУЛУФАТИТ ТУРК” ҚЎЛЎЗМАСИ ВА МАҲМУД КОШҒАРИЙНИНГ ИЛМИЙ-ГЕОГРАФИК МЕРОСИ ҲАҚИДА. *DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL CREATIVITY IN MODERN EDUCATION*, 1(1).
7. Rikhsieva, G. (2023). SCIENTIFIC RESEARCH AND SCIENTIFIC SCHOOL OF ABDURAKHIM MANNONOV. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 3(06), 1-13.
8. Omonov, Q. (2023, December). ABU NASR FAROBIYNING GEOMETRIK YASASHLARINI MUHANDISLIK GRAFIKASIDA O ‘QITISHNING SAMARALI USULLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: “Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
9. Omonov, Q., Rixsiyeva, G., Xalmurzayeva, N., Nasirova, S., Xashimova, S., & Mirzaxmedova, X. (2023). THE STANDARDS OF FORMAL WRITING STYLE AND THEIR CHOOSING. *SPAST Abstracts*, 2(02).
10. Mirzakhmedova, K. V., Omonov, Q. S., Rikhsiyeva, G. S., Nasirova, S. A., Khashimova, S. A., & Khalmurzaeva, N. T. (2023). Use of Mobile Applications in Establishing Inclusive Education in Pedagogy. *Journal of Law and Sustainable Development*, 11(12), e2376-e2376.
11. Қудратулла, О., & Махмудов, Э. (2021). “ДЕВОНУЛУФАТИТ-ТУРК” МАҲМУД КОШҒАРИЙНИНГ ИЛМИЙ-ГЕОГРАФИК ТАФАККУРИНИНГ ЮКСАК МАҲСУЛИ СИФАТИДА. *Бош муҳаррир–Рихсиева Гулчеҳра Шавкатовна*, 59.